

MAQOLLARDA AYOLLARNING MILLIY-MADANIY ETALON SIFATIDA AKS ETISHI

Rohilabonu G'o'chchiyeva

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14759733>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek frazeologik qatlamlari gender tadqiqotlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Mazkur madaniyatlarda ayollik va erkaklik olami lisoniy tasvirining gender tahlili har xil til vakillarining umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ingliz va o'zbek frazeologik birliklari va paremiyalarining gender tahlili natijalariga ko'ra har ikki tilda ham ayolning salbiy ifodasi uning ijobiy ifodasidan ustun turishi aniqlanadi. Bu jamiyat a'zolarining salbiy xususiyatga nisbatan munosabatini belgilaydigan alomatdir.

Kalit so'zlar: maqol, gender tilshunosligi, ayol obrazi, ijobiy obraz, salbiy obraz, gender ko'rsatkich, lingvomadaniyatshunoslik, mintalitet.

Ingliz frazeologik birliklarida gender ko'rsatkich faqat leksik-semantik jihatdan namoyon bo'ladi, buni ingliz tilida rod grammatik kategoriyasining yo'qligi sababli aniq bo'lgan rod farqlarining mavjud emasligi bilan izohlash mumkin. Gender ko'rsatkichlar sifatida ayol va erkak jinsini ifodalovchi leksemalar yoki frazeologik birliklar semantikasida mavjud bo'lgan ma'noli komponentlar namoyon bo'ladi.

Rod grammatik kategoriyasiga ega bo'lmagan tillarda tabiiy jins til tizimida grammatik ifodaga ega emas va asosan leksik semantika orqali ifodalanadi. Bundan kelib chiqib, tadqiq etilayotgan til manbalarining ifoda va mazmun plani gender ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak [6].

Ingliz tilida grammatik rodning mavjud emasligini hisobga olganda, frazeologik birliklarning ifoda jihatidagi gender ko'rsatkich muhim hisoblanadi.

I.V. Zikova ifoda jihatining leksemalari majmuini quyidagi uch asosiy guruhga ajratadi:

- 1) antropometrik leksemalar;
- 2) qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksemalar;
- 3) antroponimik leksemalar [7].

Antropometrik leksemalar A.V. Silinskiyning "Речевая вариативность" (1995) monografiyasida tilga olinadi va uning ostida shaxslarning jinsi va yoshiga qarab nomlovchi otlar nazarda tutiladi" [1]. I. Zikova fikriga ko'ra, girl – boy, lady – gentleman, Miss – Mrs – Mr va h.k. so'zlar antropometrik leksemalar guruhiga kirib, bu guruhga kiruvchi so'zlarning asosiy qismini juft so'zlar, ya'ni maskulin rod so'zlari va ulardan yasalgan feminin rod so'zlari tashkil etadi, masalan: prince – princess; duke – duchess va h.k. Supletiv shakllangan genderli juft so'zlar nisbatan kamchilikni tashkil etadi: boy – girl, gentleman – lady kabi.

Oila va qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi gender ko'rsatkichli leksemalarning barchasini supletiv shakllangan oppozitsion juftliklar tashkil qiladi: mother – father, daughter – son, aunt – uncle kabilar.

Genderli antroponimlarning vujudga kelishi quyidagicha izohlanadi:

- 1) Kommunikativ jarayonlar natijasida hosil bo'lgan antroponimlar Tom, Dick and Harry – har kim, hamma, birinchi uchragan, oddiy odam.

2) Ijtimoiy hayotning har xil sohasida mashhur shaxslarning tarixiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan antroponimlar [2].

Tadqiqotimiz uchun asosiy manba bo'lib A.V. Kuninning “Англо-русский фразеологический словарь” (1984) va Oxford Concise Dictionary of Proverbs (2003) lug'atlari xizmat qildi. Ushbu lug'atlardan yaxlit tanlab olish metodiga asosan mingga yaqin frazeologik birlik tanlab olindi. Tanlov mezonini sifatida frazeologizmlarning formal-semantik jihati xizmat qildi, boshqacha qilib aytganda, ifoda va mazmun planida gender ko'rsatkichlarni qamrab olgan frazeologizmlar tanlab olindi. Masalan: *The man is as old as he feels, the woman as she looks* – *erkak kishining yoshi o'zini qanday his etishiga qarab aniqlanadi, ayolniki esa ko'rinishiga qarab*.

Maqolada ingliz va o'zbek tillari frazeologizmlari va paremiyalari quyidagi semantik jihatdan ajratilgan konseptual qatlamlarda tahlil etildi: erkak va ayollarning ijtimoiy xususiyatlarini (ijtimoiy maqomi, ijtimoiy faoliyati) ifodalovchi konseptual qatlam, ayol va erkaklarning psixologik xususiyatlarini (fe'l-atvori, xulqi) ifodalovchi konseptual qatlam, ayol va erkaklarning fiziologik xususiyatlarini (tashqi ko'rinish) ifodalovchi konseptual qatlam.

Insonning ijtimoiy maqomi uning demografik belgilari bilan birgalikda jamiyatda tutgan o'rni bilan ham belgilanadi, ya'ni iyerarxik dunyoda shaxsning ijtimoiy faoliyati, oilaviy va ijtimoiy maqomi kabi belgilarning o'zaro munosabatlari ko'rib chiqildi.

Erkaklarning ijtimoiy faoliyatini tasvirlovchi frazeologik birliklarning tahlil natijasi qiziqarli ma'lumot berdi: *brother in arms* – “jangovor do'st”; *gentleman at large* – “zodagon”.

Erkak mard, jasur shaxs sifatida: *a knight in shining armour* – “ritsar, oliyhimmat inson, olijjanob kishi”; *a man's man* – “mard, qo'lidan har ish keladigan odam”.

Rahbar shaxs sifatida: *old man* – “xo'jayin, shef”; *man on horseback* – “hukmdor”; *strong man* – “yakka hokim, o'z amrini o'tkazuvchi”; *lord of creation* – “yaratuvchi erkak”.

Huquqshunos, siyosatchi, madaniyat arbobi, shifokor va h.k. sifatida: *gentleman of the long robe* – “mantiyalik jentlmen, yurist”; *a butter and egg man* – “teatr sahnalarini mablag' bilan ta'minlovchi ishbilarmon odam”; *advance agent* – “kontrakt tuzuvchi agent, vakil” *medicine man* – “tabib” [4, 1].

Erkaklar mas'uliyatli lavozimlarni egallash bilan birga, jinoyatchilik, o'g'rilik, qalloblik v h.k. lar bilan shug'ullanishga moyil bo'lishgan va bularning barchasi erkaklarga xos kasbi-kor hisoblangan, chunki buning uchun ham ma'lum darajada aql kerak bo'lgan: *a confidence man* – *tovlamachi, firibgar*; *a broken man* – *qonundan tashqari deb e'lon qilingan o'g'ri*; *knight of the pad* – *bosqinchi*; *Mr. Big* – *jinoyatchilar doirasi korchaloni, “yuqori martabali amaldor”*.

Shuningdek, erkaklar har xil turdagi kasb-hunar bilan shug'ullanishgan. Ularning kasbi va xarakteridagi turli-tumanlikni tasvirlash uchun maqol va matallar ham qo'llanilgan. Masalan: *a bad workman finds fault with his tools* – *yomon hunarmand qurolidan ayb topar*; *what is a workman without his tools?* – *qurolsiz usta usta emas*; *the workman is known by his work* – *ustani qilgan ishidan bil* [4, 1].

Jamiyatning demokratlashtirilishi, feministik harakatning vujudga kelishi tildagi mavjud frazeologik birliklarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Buning natijasida ayollarni erkaklar bilan bir xil kategoriyada tasvirlovchi frazeologik birliklar paydo bo'la boshladi. Masalan: *Mr. Right* – *bo'lajak qalliq*/ *Miss Right* – *bo'lajak rafiq*; *a man of the world* – *donishmand erkak*/ *a woman of the world* – *dono, tajribali ayol*; *His Reverence* – *hazrati oliylari (ruhoniyya nisbatan)* / *Her*

Reverence – katta hurmatga sazovor rafiq; Master of situation – “vaziyat egasi” (erkak kishi haqida) / Mistress of situation – “vaziyat egasi”, o’zi mustaqil qaror qila oladigan ayol [4, 1].

O’zbek tili frazeologizmlarida esa, erkaklarning ijtimoiy faoliyati bog’dorchilik, dehqonchilik, chorvachilik, zargarlik, ovchilik, kosibchilik, qassoblik kabi kasb-hunarlarida tasvirlangan [8]. Bu kabi faoliyatlarni ifodalovchi maqollarda esa erkaklar “bog’bon, dehqon, cho’pon, zargar, kosib, ovchi, qassob” kabi ot so’z turkumiga oid so’zlar bilan ifodalanganlar. Masalan: *Bog’bon bog’ini tuzar, Dehqon dalasini suzar; Cho’ponning tayog’i – otlining oyog’i; Kosib tikkanini maqtar; Zar bo’lmasa, zargar xarob, Yer bo’lmasa, dehqon xarob; Qassobga oq qo’y ham bir, qora qo’y ham bir [1].*

Ayol va erkaklarning ijtimoiy maqomini aks ettiruvchi frazeologik birliklarning ba’zilari tanlab olindi.

“Ijtimoiy maqom” deganda erkak va ayollarning oilaviy ahvoli nazarda tutiladi, unda turmushga chiqqan va chiqmagan ayol, uylangan va uylanmagan erkak, shuningdek, qarindoshlik munosabatlarini aks ettiruvchi frazeologizmlar tahlil etiladi [9].

Har ikki til vakillari uchun turmush muhim voqea. Ingliz tilida: *Marriage makes or mars the man – turmush inson hayotini yo yaxshi tomonga o’zgartiradi, yo yomon tomonga.*

O’zbek tilida aynan turmush qurishning afzalligini, muhimligini tasvirlovchi maqollar asosan “xotin” leksemasi orqali yoritilgan: *Uylangan – o’g’il-qizga quvongan; Xotinsizlik mehnat; Xotin – umr yo’ldoshi; Xotin – uyning chirog’i [4, 1].*

Keltirilgan misollar turmushning afzalligini tasvirlasa, har ikki tilda buning aksini ham kuzatish mumkin: *Umrindan uch kun qolsa eshak ol, bir kun qolsa xotin ol; If you would be happy for a week take a wife; if you would be happy for a month kill a pig; but if you would be happy all your life plant a garden – bir haftalik baxt uchun xotin ol, bir oylik baxt uchun cho’chqa so’y, bir umrlik baxt uchun bog’ yarat; first thrive and then wife – avval mablag’ to’pla, so’ng uylan; Honest man merry soon but wise man never – aqlli odam hech qachon uylanmaydi; Marry in haste and repent at leisure – shoshilib uylangan tez afsuslanadi (ya’ni, shoshilgan qiz erga yolchimas); Be sure before you marry of house wherein to tarry – turmush qurishdan oldin yashaydigan (bo’lajak) uying haqida qayg’ur [4, 1].*

Yuqoridagi maqollarni quyidagi birgina misol bilan izohlash mumkin: Umr savdosi – qiyin savdo. Maqollarda ayolning eriga bog’liqligi, uning oldida o’zligini tasvirlovchi frazeologik birliklar ham yo’q emas [9]: *a clinging vine – zaif, yordamga muhtoj ayol; the cobblers wife is the worst shod – “etikdo’z xotinining oyoq kiyimi hammanikidan eng yoomon”.*

Oilaviy munosabatlarga qaytar ekanmiz, quyidagi leksemalarni tahlil etish maqsadga muvofiq: ota – ona; o’g’il – qiz; aka – singil; tog’a-xola; qaynona – qaynota; kuyov – kelin; quda; o’ynash va h.k.

“O’g’il” va “qiz” leksemalari frazeologik birliklarda quyidagicha tasvirlanadi. O’g’il: *the prodigal son – noqobil o’g’il, oqpadar; son of a bitch – ablah, yaramas. Qiz: a daughter of the horse leech – (qonmas) to’ymas tovlamachi. Biroq qiz o’g’il bilan qiyoslanganda qizning ijobiy baholanishi kuzatildi: My son is my son till he gets him a wife, but my daughter’s my daughter all the days of her life – O’g’il xotin olguncha o’g’il, qiz esa bir umrga qiz.*

O’zbek tilida esa bu leksemalar qiyoslanganda ularning har ikkisi ijobiy tasvirlanadi: O’g’il uyning bulbuli, qiz – uyning guli; O’g’illi uy – farishta, qizli uy – sarishta.

O'zbek tilida qiz – ota-onaning joni, davlati, o'g'il esa – faxri, avlodini davom ettiruvchisi va aynan shuning uchun ham u qizga nisbatan zoriqib kutiladi: *Qiyshiq bo'lsa ham yo'l yaxshi, Yomon bo'lsa ham o'g'il* [1].

Leksikografik manbalarni kuzatuv davomida farzand; bola; chaqaloq; child; baby; infant komponentlari qatnashgan frazeologik birliklarga ham duch keldik. Tahlil qilinayotgan tillarda bu otlar aynan bir aniq jinsga bog'lanmagan, ya'ni o'g'ilga nisbatan ham qizga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin [3].

Odatda, xalqimizda singilni e'zozlashni o'g'ilga yoshligidan uqtirib kelinadi: *Onangni kaftingda tutsang, Onangni sirtida saqlasang, Singlingni boshingda tut. Singlingni kaftda saqla* [1].

Ayolning oilada tutgan ijtimoiy maqomlaridan biri “kelin”ga o'zbek tilida ijobiy va ba'zan juda salbiy baho beriladi.

Ingliz tilida ayolning ijtimoiy maqomi erkaklarnikiga nisbatan yorqin ifodalanmagan. Balki erkaklar ayol kishini mas'uliyatli ishlar, ilm-fan bilan shug'ullanishga qobiliyatli bo'lmagan inson sifatida tasavvur qilib, uni jiddiy ishlar bilan shug'ullanishiga to'sqinlik qilganlar. Shuning uchun, ularga nisbatan muhim kasblarni ifodalovchi til birliklari qo'llanilmagan. O'zbek tilida esa ayolning ijtimoiy maqomi asosan “uy bekasi”, “ona”, “xotin”, “qiz”, “kelin” timsollarida namoyon bo'ladi. Ammo “rahbar ayol”, “fan arbobi” kabi maqomlarining mavjud emasligi, ayollarning qadr – qimmatini tushirmaydi, chunki o'zbek erkaklari ayollarni zaif jins sifatida asrab-avaylab, e'zozlab yurishni xohlaydilar. Ularga, avvalo, saranjom – sarishtali uy bekasi, maslahatchi turmush o'rtog'i, mehribon ona kerak: “Xotining yaxshi bo'lsa, bu dunyoning charog'i”.

References:

1. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2012.
2. Manser Martin H. The Facts on File Dictionary of Proverbs. – 2007. – 499 pp.
3. Simpson J.A. The Concise Oxford Dictionary of Proverbs. – Oxford, 2003.
4. Smith W.G. The Oxford dictionary of English proverbs. – Oxford, 2008.
5. Tumanishvili K. The specific and the Universal in the Proverb Genre / Rustaveli Institute of Georgian Literature. – Volume I, 2007.
6. Носирова М. Лингвокультурологический анализ паремий, вербализующих концепт «труд–безделье» в пословицах // Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 188-197.
7. Носирова М. О. Национальная специфика отражения социальных ценностей в пословицах разносистемных языков // Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 10. – С. 594-598.
8. Носирова М.О. Паремиология: лингвокультурологический и лингвоаксиологический потенциал // Материалы международной научной конференции «Вселенная Э. Тенишева: тюркология и жизнь в науке». – Казахстан, 2024. – С.52-60.
9. Носирова М.О. Пословичная языковая картина мира как объект аксиологических исследований в языкознании // Янги Ўзбекистон: инновация, фан ва таълим, 7-қисм. – С. 35.

10. Сташкова М.А. Функционирование пословиц и антипословиц с гендерным компонентом в современном английском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2015. – 22 с.